


GEOGRAFIYA MAYDONCHASIDAGI METEOROLOGIK O'QUV JIHOZLARI

Geografiya maydonchasi uchun zarur o'quv jihozlarining miqdori va ular bilan ishslash yo'llari I.A.Abdug'aniyev, V.P.Golov, K.K.Semakin, L.A.Kuzmin, A.V.Suxorukova, X.S.Masudov, F.A.Muminov va boshqa uslubchi-geograflarning ishlarida yoritilgan.

Zarur meteorologik asboblar to'plangandan so'ng maydonchanini jihozlash boshlanadi. Maydonchaning meteorologik sektorida meteorologik kuzatishlarni olib borish uchun quyidagi o'quv jihozlari joylashtiriladi :

Meteorologik budka – ayrim meteorologik asboblarni joylashtirish uchun xizmat qiladi. Bu maydonchaning janubiy-sharqiy qismida eshigi shimolga qaratilgan holda er yuzasidan 2 m balandlikka ega bo'lgan joyga o'rnatiladi. (3-rasm). Bunday holatda budkaning ichkarisidagi asboblarga quyosh nurlari tushmaydi va atrofdagi predmetlar hamda tuproqdan qaytayotgan issiqdan himoya qilinadi. Budka maxsus konstruksiyaga ega bo'lgan qurilma bo'lib, devorlari yog'och panjaradan ishlatilgan va 2 m balandlikda 4 ta yog'och oyoqqa o'rnatilgan bo'ladi. Uning tomi 2 qavat bo'ladi. Budkaning o'lchami quyidagicha: balandligi 525 mm, bo'yи 460 mm, eni 290 mm. Budkaning devorlari qalinligi 6 mm va eni 35 mm li yog'och taxtalardan iborat. Budkaning ichiga quyosh nurlari tushmasligi uchun reykalar devorga 45° burchak bilan qiya qilib o'rnatilgan bo'lib, ular orasida shamol bemalol o'ta oladi. Budka quyosh nuri ta'sirida qizib ketmasligi uchun oq rangga bo'yaladi. Budkaning ichiga temir shtativ o'rnatilib, unga psixrometrik termometrlar mustahkamalanadi. Shtativning quyi qismiga maksimal va minimal termometrlar gorizontal holatda yotqizib qo'yiladi. Psixrometrik budkaga soch tolali gigrometr ham o'rnatiladi.

Agar maktabning imkoniyati bo'lsa, meteorologik sektorga 2 ta budka o'rnatilishi mumkin. 2-budkaning ichiga termograf va gigrograflar o'rnatiladi.



3-rasm. METEOROLOGIK BUDKA.

Psixrometrik termometrlar havo haroratini va namligini o'lchash uchun qo'llaniladigan ikkita vertikal o'rnatilgan simobli termometrlardan iborat. Bular simobli bo'lib, uzunligi 39-43 sm, simob solingan idishchaning diametri 9-12 mm bo'ladi. Shkalasi 0° dan yuqorida 50° gacha, 0° dan pasti esa -35° gacha har $0,2^{\circ}$ aniqlikda ko'rsatadigan bo'linmadan iborat. Termometrlarning birini simobli idishi toza batis bilan o'rab qo'yiladi va shu qismi toza suvli stakanga tushirib qo'yiladi. Quruq termometr ko'rsatkichidan havoning harorati, quruq va namlangan termometrlarning ko'rsatishlaridan psixrometrik jadval yordamida havoning namligi tavsifnomasi (to'yingan suv bug'larining elastikligi, namlik yetishmasligi, nisbiy namlik, shudring nuqtasi) aniqlanadi.

Termometrlar vertikal ravishda o'rnashtiriladi. Qishloq joylarida ipak qurti boquvchilariga beriladigan Avgust psixrometridan ham havo haroratsi va namligini aniqlashda foydalanish mumkin. Asbobning termometrlari ko'rsatishidan uning yuzasiga yozilgan jadvaldan nisbiy namlik aniqlanadi.

Maksimal termometr - simobli bo'lib, havoning eng yuqori haroratini o'lchash uchun ishlataladi. Uzunligi 350 mm, shkalasining har bir bo'limi $0,5^{\circ}$ ga teng bo'lib, havo haroratining 71° dan 31° gacha o'zgarishini ko'rsatadi. Undan hisob olib bo'lingandan so'ng termometrni qo'lga olib, 2-3 marta silkitib, yana gorizontal holatda o'z joyiga qo'yiladi.

Minimal termometr – biror vaqt ichida eng past haroratni o'lchash uchun qo'llaniladi. Bu termometr spirtli bo'lib, kapilyar naycha ichida qora rangli shtiv (shisha cho'p) bo'ladi. Hisob olinganda qo'l bilan tegilmaydi va hisob shtivning yuqori uchiga to'g'ri kelgan shkala qismidan olinadi. Termometrning uzunligi 300 mm shkalasi 21° dan -71° gacha bo'ladi. Hisob olib bo'lingandan so'ng termometrni qo'lga olib shtivni pastga tushirib yuboriladi va termometrni gorizontal xolatda o'z joyiga qo'yiladi.

Termograf – havo haroratini uzlusiz ravishda (sutka yoki hafta davomida) lentaga yozib borish uchun qo'llaniladigan asbob. Uning qabul qiluvchi qismida egilgan temir, yoki misdon ishlangan 2 ta plastinka mavjud. Plastinkaning bir tomoni mustahkamlangan ikkinchi uchi esa maxsus tutgich bilan strelkaga ulangan. Strelka uchiga maxsus pero o'rnatilgan va analin siyohi bilan to'ldirilgan. Haroratning o'zgarishi bilan plastinka kengayib, strelkani harakatga keltiradi va strelkaning uchidagi pero aylanib turuvchi barabandagi lentaga egri chiziqlar tushira boshlaydi. Baraban maxsus soat mexanizmi yordamida aylanadi. Lentaning vertikal shkalasi har 15 minutdan bo'lingan, haftalik termografda shkala 2 soatdan bo'lingan. Lentaning gorizontal shkalasi har bir gradusdan bo'lingan. Termograflarning xiliga mos ravishda uning lentasi har sutkada yoki har haftaning dushanba kunlari almashtiriladi. Lentada qayd qilingan chiziqlardan haroratni o'zgarishi aniqlanadi.

Sochli gigrometr – havoning nisbiy namligini o'lchash uchun ishlataladi. Unda tabiiy soch tolasidan foydalaniladi. Soch tolesi har xil yog' va kirlardan tozalangandan so'ng, u havodagi namning o'zgarishi natijasida, ya'ni nam ko'paysa uzayadi, nam kamaysa qisqaradi. Asbobni psixrometrik budkaga dastlab o'rnatishda strelkasi psixrometr yordamida aniqlangan, nisbiy namlik miqdori bo'yicha shkalada to'g'rilib qo'yiladi. Keyingi vaqtarda asbobning ko'rsatishi bilan taqqoslanib boriladi. Bizning sharoitimizda gigrometrda asosan qish oyalarida foydalanish maqsadga muvofiq.

Gigrograf – havodagi nisbiy namlikni sutka yoki hafta davomida uzlusiz yozib borish uchun ishlataladigan asbob. Asbob korpusining orqa tomoniga soch tolasidan iborat kronshteyn o'rnatilgan. Soch tolasining bir uchi strelkaga, ikkinchi uchi esa kronshteynga o'rnatilgan. Havo namligi o'zgarganda soch tolesi uzayadi yoki qisqaradi. Natijada strelka uchidagi siyohli pero lentaga chiziqlar chizadi. Asbob strelkasining holati dastlab psixrometr ko'rsatishi bo'yicha aniqlanadi.

Vild flyugeri – shamolning yo’nalishi va tezligini aniqlashda foydalaniladigan asbob. U maydonchaning janubiy-g’arbiy sektorining o’rtasida, gorizont tomonlari yaxshi ko’rinadigan va shamol to’silmaydigan ochiq joyda 8-10 m balandlikda o’rnatiladi. Uning ustunidan balandlik o’lchagich sifatida foydalaniladi. Flyugerni o’rnatishda uning gorizont tomonlari ko’rsatkichini gorizont tomonlariga moslashtirish kerak.

Flyuger bilan shamol tezligi aniqlanishida uning doskasini og’irligiga e’tibor berish kerak. Hozirgi vaqtida yengil (200 gr) va og’ir (800 gr) doskali flyugerlar bor. 2-jadval yordamida doskalarning yoy shtifitidagi holatidan shamolning tezligi aniqlanadi.

Respublikamizning Qo’qon guruh tumanlaridagi maktablarda og’ir doskali flyugerdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, kuchli «Qo’qon shamoli» esganida engil doskali flyuger yordamida shamolning tezligini aniqlab bo’lmaydi.

Yg’in o’lchagich (osadkomer) – yog’inlar miqdorini o’lchash uchun xizmat qiladigan asbob. U 2 dona paqircha, metall plastinkalardan tuzilgan to’siq va o’lchov stakanidan iborat. Paqirchaning yuqori qirrasi er yuzasiga nisbatan 2 m balandlikda bo’lishi kerak. Paqirchaning hajmi 200 sm^2 bo’lib, unda jo’mrak va varonka mavjud. Varonka yozda paqircha ichiga qo’yiladi, qishda esa olib qo’yiladi. Varonka yozda paqirchadagi suvni bug’lanishini ozaytirish vazifasini bajaradi. Yog’in miqdorini o’lchashda paqirchadagi suv o’lchov stakaniga quyiladi. O’lchov stakani 100 bo’lakli shkalaga bo’lingan bo’lib, har qaysi bo’lak 2 sm^2 ga yoki $0,1 \text{ mm}$ ga teng. Demak, o’lchov stakanining hajmi paqirchanikidan 10 marta kichikdir. SHuning uchun, o’lchov stakani bo’yicha aniqlangan yog’in miqdori o’ngga taqsimlanadi va unga bug’lanish hamda idish devorlarini namlanishi evaziga $0,2 \text{ mm}$ miqdorida qo’shimcha qo’shiladi. Qor yoqqanida paqircha o’lchashga olinib uning o’rniga ikkinchi paqircha qo’yiladi. Qorli paqircha xonaga olib kirilib, erigan qor suvini o’lchov stakani yordamida yomg’irni o’lchaganday o’lchanadi.

Yog’in o’lchagich imoratlar va daraxtlardan uzoqroqda bo’lgan ochiq joyda joylashtiriladi. Yog’in miqdori sutkada ikki marta, ertalab soat 7 va kechqururun soat 19 da o’lchanadi.

KUZATISH TARTIBI

1-jadval


Vaqt		Kuzatish elementi	Bajariladigan ishlar
Soat	Daqiqa		
9, 12 15, 18	5		Asboblarni kuzatishga tayyorlash
9, 12	5	Havo harorati va namligi	Quruq va nam bo'lgan termometrlardan hisob olinadi: Termograf va gigrograflarning lentalariga vaqt belgilanadi; minimal va maksimal termometrlardan hisob olinadi.
9, 12 15, 18	3	Yog'in	Osodkomer paqirchasi almashtiriladi. Paqirchadagi suv o'lchov stakaniga quyilib, yog'in o'lchanadi. Plyuviograf lertasiga vaqt belgilanadi.
9, 12	2	Bosim	Barometr yordamida bosim o'lchanadi. Barograf lertasiga vaqt belgilanadi. Lentasi soat 13 ⁰⁰ larga yaqin almashtiriladi.
9, 12 15, 18	5	Shamol	Flyuger va anemometr yordamida shamolning yo'nalishi va tezligi o'lchanadi.
9, 12 15, 18	2	Quyosh balandligi	Uglomer yordamida quyoshning gorizontdan balandligi o'lchanadi.
9, 12 15, 18	2	Bulutlik	Bulut turlari va bulutlilik darajasi aniqlanadi.
9, 12 15, 18	2	Suv harorati	Suv termometri yordamida suvning harorati o'lchanadi.
9, 12 15, 18	5	Atmosfera hodisalari	Shudring, qirov, bulduruq, tuman, yaxmalak, chaqmoq, kamalak va boshqa hodisalar kuzatiladi.

ESLATMA:

1. Kuzatish 10-15 daqiqa ertaroq boshlanadi.
2. Kuzatish natijalari maxsus jurnalga yoziladi.
3. Kuzatish tugagandan so'ng navbatchilar ularni qayta ishlaydilar.

Anemometr va flyuger ko'rsatkichlari 2-jadval

Flyuger doskasining yon shtifitidagi holati	Shamolning tezligi, metr sek.	
	Yengil doska	Og'ir doska
0	0	0
0-1	1	2
1	2	4
1-2	3	6
2	4	8
2-3	5	10
3	6	12
3-4	7	14
4	8	16
4-5	9	18
5	10	20
5-6	12	24
6	14	26
6-7	17	34
7	18	36



4-rasm. YOG'IN O'LCHAGICH.

Nefoskop halqasi – bulutlik miqdori va bulutlarning yo’nalishini aniqlashda foydalaniladigan asbob, uni yashash uchun velosiped g’ildiragining gardishi topilib, uning to’rt tomonidan sim o’tkaziladi va simlarni 2 m balandlikdagi ustunchalarga tortiladi. Halqaning sim o’tkazilgan joylari gorizont tomonlariga moslashtiriladi. O’quvchi halqa ostida turib, bulutlik darajasini va bulutlarning harakatini kuzatadi.

Qor o’lchagich reyka qor qoplaming qalinligini o’lchashda ishlataladi. Balandligi 1 m bo’lgan reyka har sm dan bo’laklarga bo’linadi va bo’yaladi. Maydonchaning eng tekis yeriga 0 bo’linmasi yer yuzasida bo’lgan holatda o’rnataladi.

Qor o’lchagich (snegomer) qor qoplaming zichligi va undagi suv zahirasini aniqlash uchun xizmat qiladi. U quyidagi qismlardan iborat: hajmi 8 1 bo’lgan polietilenli paqircha; 0 dan 50 sm gacha bo’laklarga bo’lingan qor o’lchagich silindr; qor qoplaming qalinligini o’lchashda ishlataladigan balandligi 160 sm li metal lineyka.

Qor o’lchagich yordamida qorning zichligi so’ngra qor suv zaxirasi aniqlanadi. Har gektar maydonchaga to’g’ri keladigan qor suvi quyidagicha hisoblab topiladi:

1. Qor o’lchagichning metall lineykasi yordamida nazorat uchun qor balandligi o’lchanadi.
2. Qor o’lchagichning silindri tik holatda qorga tiqiladi va uning shkalasidan qorning balandligi o’lchanadi.
3. Silindrda qorni to’kmasdan ko’tarib olinadi va undagi qor paqirchaga to’kib eritiladi. So’ngra qor suvi o’lchov stakaniga quyilib, uning miqdori aniqlanadi.
4. Olingan ma’lumotlar bo’yicha quyidagi formuladan foydalanib, qorning va qor suvining hajmi, qorning zichligi, qordagi suv zaxirasi, har gektar maydonga to’g’ri kelgan qor suvi aniqlanadi.

- 1) $qh = 100 \times N$: bu yerda qh – qorning hajmi (sm^3)
 N – qorning balandligi (sm)
 100 – silindrning ko’ndalang kesimi maydoni (sm^2)
- 2) $sh = 5 \times P$: bu yerda sh – qor suvining hajmi (sm^3)
 P – o’lchov stakanidagi bo’linmalar soni
 5 – o’lchov stakanining ko’ndalang kesimi (sm^2)
- 3) $qz = sh : qh$: qz – qorning zichligi (gr/sm^3)
 sh – qor suvining hajmi (sm^3)
 qh – qorning hajmi (sm^3)
- 4) $D = 10 \times qz \times N$: D – qorning suv zaxirasi (mm)
 qz – qorning zichligi (gr/sm^3)
 N – qorning balandligi (sm)

10 – sm ni mm ga aylantiruvchi ko'paytma

- 5) $a = 10 \times D$: bu erda a – har gektar maydonga to'g'ri keladigan qor suvi (tonna/gektar)
D – qorning suv zaxirasi (mm)
10 – mm ni t. ga aylantiruvchi ko'paytma

Barometr – aneroid havo bosimini o'zgarishini mm yoki mb hisobida o'lchashda foydalaniladigan asbob. Asbob yordamida o'lchangan bosimni miqdori hisobida bo'lsa, uni mb yoki gPa ga aylantirish mumkin. Uning uchun quyidagi nisbatdan foydalanamiz:

$$\begin{array}{ll} 1 \text{ ml} = 1,33 \text{ mb} & 1 \text{ mm} = 1,33 \text{ mb} \\ 1 \text{ mb} = 0,75 \text{ mm} & 1 \text{ mm} = 1 \text{ ml} \end{array}$$

Masalan, bosim 1000 mb bo'lsa, uni mm ga aylantirish uchun 0,75 ga ko'paytiriladi: $1000 \times 0,75 = 750 \text{ mm}$.

Barograf – atmosfera bosimini o'zgarishini sutka yoki hafta davomida uzluksiz yozib borish uchun ishlataladigan asbob. Bunda aylanuvchi barabanga o'rnatilgan lentaga bosim o'zgarishini strelkaga o'rnatilgan pero chizib boradi. Barografning lentasi mb da berilgan. Uning strelkasini o'rnatish uchun avval barometr aneroiddan bosim aniqlanadi va uni mb aylantiriladi. Barometr aneroid, barograf hamda qor o'lchagich geografiya kabinetida saqlanadi. Bosim, uy ichi va tashqarisida kam farqlanishi natijasida bosim o'lchash ishlari xonada o'tkazilishi ham mumkin.

Eklimetr – quyoshning va qutb yulduzining burchak balandligi, daraxtlar, imoratlar, balandliklarni aniqlashda foydalaniladigan asbob.

GEOGRAFIYA MAYDONCHASIDA METEOROLOGIK KUZATISHLARNI O'TKAZISH

Geografiya maydonchasi zarur meteorologiya asboblar bilan jihozlangandan so'ng unda o'quvchilar meteorologik kuzatishlarni olib borishadi.

Ob-havoni kuzatish geografiya maydonchasida olib boriladigan ishlarning ichida alohida o'rinni egallaydi. Ob-havoni kuzatish ishlari IV sinfdan boshlab IX sinflarda ham davom ettiriladi. Umumta'lim maktablarining geografiya dasturida V-VI sinf o'quvchilarining quyidagilarni uddalay olishi belgilangan:

- ob-havoni kuzatishni, zarur ma'lumotlarni qayd qilishni, ob-havoning o'zgarishi sabablarini tushuntirishni, o'zi yashayotgan joyda yil fasllarning almashinishini tushuntirishni;

- o'rtacha haroratni hisoblash hamda oy, yil uchun grafik tuzishni; «shamollar guli», bulutlik va yog'inlar diagrammasini tuzishni, sutkalik, oylik ob-havoning tavsifini tuzishni bilishi kerak.

Maktab dasturining yuqoridaq talabini bajarish uchun geografiya maydonchasida o'quvchilarning meteorologik kuzatishlarini izchil uyuştirish lozim.

Quyida geografiya maydonchasida meteorologik kuzatishlarni uyuştirish ishlarini tashkil etish yo'llari bayon qilinadi.

1. Geografiya maydonchasida qanday meteorologik kuzatishlarni o'tkazish mumkinligi aniqlab olinadi. Chunki, bu maydonchada o'rnatilgan asboblarning miqdoriga ham bog'liqdir.

Geografiya maydonchasida quyidagi meteorologik kuzatishlar olib borish mumkin :

- 1) Havo haroratini o'lhash;
- 2) Havoning namligini o'lhash;
- 3) Havoning bosimi o'lhash;
- 4) SHamolning yo'nalishi va tezligi aniqlash;
- 5) Bulutlik darajasi va bulut turlarini aniqlash;
- 6) Yg'in turlari va miqdori aniqlash;
- 7) Quyoshning gorizontdan balandligi va unga bog'liq holda quyosh radiatsiyasining miqdorini aniqlash;
- 8) Atmosfera hodisalari (momaqaldiroq, kamalak, tuman qirov, shudring va boshqalar)ni kuzatish va aniqlash.

2. Geografiya maydonchasida meteorologik kuzatishlarni olib borish uchun eng avvalo o'quvchilar asboblar bilan ishlash malakasiga ega bo'lishlari juda zarurdir. O'qituvchi o'quvchilarning ob-havoni kuzatishini tashkil etish va kuzatish usullari bilan o'quv yili boshida maxsus darsda tanishtiradi. V sinfda birinchi darsning oxirida o'quvchilarga keyingi darsda katakli daftar, qalam, lineyka olib kelishlari aytildi. Birinchi darsda ob-havo qanday kuzatiladi va kuzatish natijalari qanday qayd qilinishi tushuntiriladi. O'quvchilar daftarlariiga ob-havo kuzatishlarini qayd qilish uchun yilnomaga chizib olishadi. Ikkinchi dars bevosita

geografiya maydonchasida o'tkazilib, unda o'quvchilarni meteorologik kuzatishlarini olib borishida foydalanadigan asboblar bilan tanishtiradi, kuzatish qoidalari va shartli belgilarni tushuntiradi.

3. Meteorologik shartli belgilarni alohida qog'ozga chizilib, ulardan biri geografiya maydonchasiga, ikkinchisi geografiya xonasiga osib qo'yiladi. O'quvchilar shartli belgilarni o'z daftarlariiga chizib olishadi. 3-jadvalda atmosfera hodisalari va ularning shartli belgilari keltirilgan.

4. Kuzatish ishlarini olib borish uchun har qaysi sinflarda o'quvchilarning qatorlar bo'yicha ro'yxati tuziladi. Bunda har bir qatorda 4 ta o'quvchi bo'lib, ular ertalab soat 8.00, kunduzi soat 14.00 va kech soat 20.00 da kuzatish ishlarini olib borishlari mumkin. Lekin, maktablarda dars rejimiga ko'ra kuzatish vaqtleri boshqacharoq ham bo'lishi mumkin. Masalan, soat 8.30, soat 12.30 va xokazo. 5-6- sinflarda dastlab navbatchilar emas, balki hamma o'quvchi kuzatish malakalariga ega bo'lishgach navbatchilik asosida kuzatish ishlarini olib borishlari mumkin. Bundan tashqari kuzatishlar soni o'quvchilarning yoshi va bilim darajalariga ham bog'liq. 5- va 6- sinf o'quvchilari kuniga bir marta, ya'ni tush paytida kuzatish ishlarini olib borishadi. 7- sinfdan boshlab har kuniga bir necha marta kuzatish ishlari o'tkaziladi.

5. Ob-havoni kuzatish ishlari aniq kursatilgan vaqtida olib borilishi zarur.


Kuzatish vaqtida meteorologik ketma – ketlikka aniq rioxasi qilinishi lozim. Bunda kuzatish vaqtidan 15 daqiqa oldin asboblarning tayyorligi va jurnallar tekshirib chiqiladi. Kuzatish ko'rsatilgan vaqtidan 5 minut oldin boshlanadi. Bunda eng avvalo 2 – 3 minut davomida osmonning bulut bilan qoplanishi nefoskop yordamida aniqlanadi va jurnalga qayd qilinadi. Keyin 2-3 minut da shamolning yo'nalihi va tezligi aniqlanadi. Ko'rsatilgan ma'lum vaqtida havoning harorati va namligi o'lchanadi. So'ng yog'in tushgan bo'lsa uning miqdori, va 5 minutdan so'ng havoning bosimi o'lchanadi.

6. O'quvchilar kuzatish vaqtida asboblar bilan extiyot bo'lib muomala qilishi, kuzatish qoidalari buzmasligi va kuzatgan meteorologik elementlarva hodisalarni daftarga oddiy qalam bilan o'z vaqtida aniq qilib yozib borish lozim.

Kuzatish olib borilayotgan vaqtning o'zida natijalar daftarga oddiy qalam bilan yozib boriladi. Kuzatish vaqtida atmosfera hodisalari ham yoziladi, masalan shudring, tuman va boshqalar.

7. Kuzatish natijalari maxsus jurnallarga qayd qilinadi. V-VI sinflarda 2-, 3-jadvallardan yuqori sinflarda esa 5- jadvaldagini foydalilaniladi.

8 Kuzatish natijalari ma'lum davr uchun to'plangandan so'ng, mifik joylashgan xudud uchun ob-havo va iqlim tasnifini berish mumkin. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib bir oy mobaynidagi haroratining o'zgarishi garafigi (7-rasm), o'ratacha sutkalik va oylik havo haroratlari, amplitudasi, bulutli va bulutsiz kunlar, yog'inli va yog'insiz kunlarning doiraviy diagrammasi (8-rasm), yog'irlarni yillik taqsimlanishi grafigi (9-rasm), shamollar "guli" (10-rasm) va boshqalar chiziladi va ulardan dars jarayonida foydalilaniladi.



Havoning nisbiy namligini aniqlashda 4-jadval ma'lumotlaridan foydalilaniladi.

Misol, quruq termometrning ko'rsatkichi 18^0 , namlangan termometrning ko'rsatkichi 12^0 bo'ssin. Havo namligini topish uchun termometrlar ko'rsatkichlarining ayirmasini topamiz: $18^0 - 12^0 = 6^0$. jadvaldan namlangan termometrning va ikkala termometrlarning ko'rsatkichidagi ayirma miqdorini kesishtirib, nisbiy namlik 44 foiz ekanligini bilib olamiz.

5-rasm

Ob-havo hodisalarining shartli belgilari		
○ <i>Havo ochiq</i>	— ▶ <i>Kuchli shamol</i>	△ <i>Bulduruq</i>
● <i>Havo bulut</i>][<i>Quyun</i>	▽ <i>Do'l</i>
◐ <i>Havo yarim bulut</i>	≡ <i>Tuman</i>	⚡ <i>Chaqmoq, momaqaldiroq</i>
◑ <i>Havo ozgina bulut</i>	● <i>Yomg'ir</i>	⌒ <i>To'p-to'p bulut</i>
— <i>Shabada</i>	* <i>Qor</i>	— <i>Qat-qat bulut</i>
— » <i>O'rtacha shamol</i>	△ <i>Jala</i>	— <i>Patsimon bulut</i>

Namlangan termometr ko'rsatkichi grad.	Quruq va namlangan termometrlarning ko'rsatkichlari farqi, grad.												
	0	0,5	1,0	1,5	2,0	2,5	3,0	3,5	4,0	4,5	5,0	5,5	6,0
5	100	91	84	78	71	65	59	54	48	43	39	34	30
6	100	92	85	78	72	66	61	56	50	45	41	35	33
7	100	92	86	79	73	67	62	57	53	47	43	39	35
8	100	92	86	80	74	68	63	58	54	49	45	41	37
9	100	93	86	81	75	70	65	60	55	51	47	43	39
10	100	94	87	82	76	71	66	61	57	53	48	45	41
11	100	94	88	82	77	72	67	62	58	55	50	47	43
12	100	94	88	82	78	73	68	63	59	56	52	48	44
13	100	94	88	83	78	73	68	64	61	57	53	50	46
14	100	94	89	83	79	74	70	66	62	58	54	51	47
15	100	94	89	84	80	75	71	67	63	59	56	52	49
16	100	95	90	84	80	75	72	67	64	60	57	53	50
17	100	95	90	84	81	76	73	68	65	61	58	54	52
18	100	95	90	85	81	76	74	69	66	62	59	56	53
19	100	95	91	85	82	77	74	70	66	63	60	57	54
20	100	95	91	86	82	78	75	71	67	64	61	58	55